<i>Tajekeev Ziyatdin Kobeytinovich</i>	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ЗАТРАТАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	927
<i>Минутдинова Лилия Тагировна</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ ОСВЕЩЕНИЯ САЛОНОВ ВАГОНОВ МЕТРОПОЛИТЕНА ПУТЕМ ЗАМЕНЫ ЛАМП НАКАЛИВАНИЯ ЛБ-40 (ЛБ-36) НА СВЕТОДИОДНЫЕ LED-ЛАМПЫ	934
<i>Файзуллаев Асомитдин Аловитдинович, Нематов Эркин Хамраевич, Пирназаров Шохрух Холмурод угли</i>	
HUDUDY BARQAROR O'SISHDA INKLYUZIV IQTISODIY MEKANIZMLARNING ROLI	939
<i>Xamroqulov M.J.</i>	
UZBEKISTAN'S HIGHER EDUCATION SYSTEM STRENGTHENS ITS POSITION ON THE INTERNATIONAL STAGE.....	944
<i>Umarov Diyor Ravshanovich</i>	
YANGI TAKOMILLASHTIRILGAN PAXTA SEPARATORINI KORXONADA SINOV JARAYONIDAN O'TKAZISH.....	949
<i>Raximov Akbar Xolmurodovich</i>	
KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHNING OSIYO DAVLATLARI TAJRIBALARI: TAHLILY YONDASHUV	953
<i>Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich</i>	
КИНЕТИЧЕСКАЯ АРХИТЕКТУРА НА ПРИМЕРЕ ДИНАМИЧЕСКИХ ФАСАДОВ	958
<i>Хаитов Суннатжон Истамович</i>	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING AMALIY IMKONIYATLARI.....	963
<i>Ibragimova Shahlo Alimbayevna</i>	
ЗАКОНОМЕРНОСТИ ДЕСУЛЬФУРАЦИИ МЕТАЛЛА ШВА В ЗАВИСИМОСТИ ОТ СОСТАВА ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ФЛЮСОВ	969
<i>Абралов Музаффар Махмудович</i>	
РОЛЬ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА И ИННОВАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ	975
<i>Бахрамов Зиядулла Баходирходжаевич</i>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	979
<i>Yuldasheva Mexrunisa Qasimjan qizi</i>	
OLIY TA'LIM SOHASINI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISHNING INSTITUTSIONAL VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	984
<i>Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li</i>	



XORIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA DAVLAT AKTIVLARI BO'YICHA INTERAKTIV MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISH ORQALI BUDJET XARAJATLARINI TAHLIL QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	989
Dilshod Pulatov, Gulzara Kaxxarova	
TEMIR YO'L TRANSPORTINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	994
Raximov Xasan Shukurjonovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	1000
Yuldashev Doniyor Tairovich	
PENSIYA JAMG'ARMALARIDA HISOBNI TASHKIL ETISH VA XARAJATLAR SMETASI IJROSI BO'YICHA HISOBOTI TAHLILI	1005
Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o‘g‘li	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA‘MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH BO‘YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQARISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	



NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI

Xamrokulov Sindor Qahramonovich
“Sharq” universiteti o'qituvchisi, Navoiy shahri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy viloyati agrar strukturasi iqtisodiy tavsifi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, tarmoq tarkibi, ekin maydonlari va chorvachilik ko'rsatkichlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda agrar sektordagi tarkibiy siljishlar va resurslardan foydalanish samaradorligi baholanadi. Statistik tahlil natijalari hududda chorvachilikning yetakchi o'rni saqlanib qolayotganini, dehqonchilikda esa diversifikatsiya jarayonlari kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Olingan xulosalar Navoiy viloyatida agrar siyosatni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, agrar struktura, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, ekin maydonlari, hosildorlik, yalpi hosil, tarkibiy siljishlar, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. This article analyzes the economic characteristics of the agrarian structure of Navoi region based on the volume of agricultural output, sectoral composition, crop areas, and livestock indicators. The study assesses structural shifts in the agrarian sector and the efficiency of resource utilization. The results of the statistical analysis show that livestock farming maintains a leading position in the region, while diversification processes in crop production are intensifying. The obtained conclusions are of practical significance for improving agrarian policy in Navoi region.

Keywords: Navoi region, agrarian structure, agriculture, crop production, livestock farming, crop areas, productivity, gross output, structural changes, economic efficiency.

Аннотация. В статье проводится анализ экономической характеристики аграрной структуры Навоийской области на основе показателей объема сельскохозяйственной продукции, отраслевой структуры, посевных площадей и животноводства. В исследовании оцениваются структурные сдвиги в аграрном секторе и эффективность использования ресурсов. Результаты статистического анализа показывают, что животноводство сохраняет ведущую роль в регионе, в то время как в растениеводстве усиливаются процессы диверсификации. Полученные выводы имеют практическое значение для совершенствования аграрной политики Навоийской области.

Ключевые слова: Навоийская область, аграрная структура, сельское хозяйство, растениеводство, животноводство, посевные площади, урожайность, валовая продукция, структурные сдвиги, экономическая эффективность.

KIRISH

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, uning tarkibiy tuzilmasini va rivojlanish xususiyatlarini hududlar kesimida tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, agrar strukturaning iqtisodiy tavsifi ishlab chiqarish salohiyati, resurslardan foydalanish darajasi hamda tarmoqlararo nisbatlarni aniqlash imkonini beradi.

Navoiy viloyati tabiiy-iqlim sharoiti va resurs bazasi bilan respublika agrar tizimida o'ziga xos o'rin egallaydi. Hududda dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining rivojlanish dinamikasi agrar siyosat samaradorligini baholash uchun muhim mezon hisoblanadi. Shu bois, Navoiy viloyati agrar strukturasi iqtisodiy tavsifini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Mazkur tadqiqot hudud agrar sektorida tarkibiy siljishlar va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar sektorning tarkibiy o'zgarishi (strukturaviy transformatsiya) iqtisodiy o'sishning muhim manbalaridan biri bo'lib, u unumdorlik oshishi, resurslarning samarali qayta taqsimlanishi va bozor integratsiyasi orqali yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan Divanbeigi, Paustian va Loayza (xalqaro tadqiqotchilar, Jahon banki) agrar sektorda tarkibiy o'zgarishlarni tushuntiruvchi asosiy mexanizmlarni izohlab, qishloq xo'jaligida samaradorlikning ortishi umumiy iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo'lishini ta'kidlaydi [1].

Polshalik olim Karol Pogorzelski "IBS Policy Paper" nashrida chop etilgan "Agricultural Development and Structural Change" maqolasida qishloq xo'jaligini rivojlantirishni iqtisodiyotda tarkibiy siljishlarni tezlashtiruvchi omil sifatida asoslaydi [2].

MDH va Markaziy Osiyo kontekstida I. J. Xitakhunov qishloq xo'jaligining hozirgi holati, resurs cheklovlari va rivojlanish istiqbollarini mintaqaviy darajada tahlil qilib, agrar strukturaning shakllanishi tabiiy-resurs va institutsional omillar bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi [3]. Shuningdek, E. Vinokurov va A. Glazunova O'zbekistonning (jumladan, meva-sabzavot yo'nalishi bo'yicha) bozor salohiyati va tashqi bozorlar bilan integratsiyalashuvi agrar ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir ko'rsatishini, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushi oshishi strukturaviy o'zgarishlarni kuchaytirishini qayd etadi [4].

O'zbekiston olimlari doirasida S. A. Soliev va R. Eshchanov agrar sektordagi umumiy rivojlanish tendensiyalarini yoritib, tarmoqlar kesimidagi siljishlarni (dehqonchilik va chorvachilik nisbatlari, ishlab chiqarish dinamikasi) baholash zarurligini asoslaydi [5]. Bevosita Navoiy viloyati misolida Q. X. Jumaev yer resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilib, ekin maydonlari tarkibi va yer unumdorligidagi farqlar hudud agrar strukturasi iqtisodiy tavsifini aniqlashda tayanch omil ekanini ko'rsatadi [6].

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan manbalar agrar strukturaning iqtisodiy tavsifi uchun uchta asosiy yo'nalishni belgilaydi: birinchi, agrar sektorda strukturaviy transformatsiya va unumdorlik omillari [1–2]; ikkinchi, mintaqaviy resurs cheklovlari va bozor integratsiyasi sharoitida tarkibiy siljishlar [3–4]; uchinchi, O'zbekiston va Navoiy viloyati sharoitida yer resurslari hamda ishlab chiqarish samaradorligi orqali agrar tuzilmani baholash [5–6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi rasmiy statistik ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, unda tizimli yondashuv, taqqoslama va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Navoiy viloyati agrar ko'rsatkichlari respublika o'rtacha darajalari bilan qiyoslab baholandi. Ekin maydonlari tarkibi va hosildorlik ko'rsatkichlari orqali resurslardan foydalanish samaradorligi aniqlandi. Chorvachilik tarmog'i bo'yicha dinamik tahlil yordamida barqaror rivojlanish tendensiyalari baholandi. Tadqiqotda umumshtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyati agrar strukturasi iqtisodiy tavsifini ochib berishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va uning tarmoq tarkibi (dehqonchilik hamda chorvachilik) asosiy indikatorlardan hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlar agrar sektordagi ishlab chiqarish salohiyati, tarmoqlararo nisbatlar va tarkibiy siljishlarning yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, dehqonchilik va chorvachilik ulushlarining dinamikasi hududning resurs bazasi hamda bozor talablariga moslashuv darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va tarkibi¹

Yil	Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd so'm	Dehqonchilik, mlrd so'm	Chorvachilik, mlrd so'm	Dehqonchilik ulushi, %	Chorvachilik ulushi, %
2021	15224	4963,2	9584,0	32,6	62,9
2022	16442	5267,1	9884,6	32,0	60,1
2023	18907	6449,0	11869,9	34,1	62,8
2024	21530	6985,4	13077,8	32,5	60,7

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillarda Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi 15 224 mlrd so'mdan 21 530 mlrd so'mga oshib, umumiy o'sish 41,4 %ni tashkil etgan. Tarkibiy jihatdan chorvachilik yo'nalishi barcha yillarda ustun bo'lib, uning ulushi 60,1–62,9 % oralig'ida shakllangan va agrar ishlab chiqarishning nisbatan barqaror segmenti ekanini ko'rsatadi. Dehqonchilik ulushi 32,0–34,1 % diapazonda bo'lib, 2023-yilda 34,1 %ga ko'tarilgani tarkibiy siljishlarning qisqa muddatli kuchayganini anglatadi. Bu holat, odatda, hosildorlik va ekinlar tarkibidagi o'zgarishlar, shuningdek, mahsulot narxlarining o'zgarishi bilan izohlanadi. Umuman, jadval natijalari Navoiy viloyati agrar strukturasi chorvachilikning yetakchi o'rni saqlanayotganini, dehqonchilik esa o'sib borayotgan bo'lsa-da, umumiy tarkibda ikkilamchi segment bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Shu sababli, hudud agrar siyosatida chorvachilikni qo'llab-quvvatlash bilan birga, dehqonchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish va mahsulot diversifikatsiyasini chuqurlashtirish zarurati dolzarblashadi [8].

1 Manba: "O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2021–2025" - statistik to'plam, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nashri, Toshkent 2025 [7]



Agrar strukturaning iqtisodiy tavsifini shakllantirishda ekin maydonlari tarkibi muhim resurs ko'rsatkichi hisoblanadi. Ekin turlari bo'yicha yer maydonlarining taqsimlanishi hudud qishloq xo'jaligining ixtisoslashuv darajasi, ishlab chiqarish yo'nalishlari va diversifikatsiya jarayonlarini aks ettiradi. Shu sababli, Navoiy viloyatida ekin maydonlari tarkibini tahlil qilish agrar sektor rivojlanishining resurs asoslarini aniqlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. Navoiy viloyatida ekin maydonlari tarkibi (ming gektar)²

Ekin turlari	2021	2022	2023	2024	Ulushi (2024), %
Don ekinlari	42,7	42,1	41,6	42,0	47,89
Texnik ekinlar (paxta)	36,9	30,3	27,7	27,2	31,13
Sabzavotlar	5,8	5,9	6,3	7,0	7,98
Kartoshka	2,5	3,0	3,0	3,5	3,99
Poliz ekinlari	1,5	1,8	1,8	2,2	2,51
Ozuqa ekinlari	4,8	4,9	5,4	5,7	6,50
Jami	89,9	88,6	86,4	87,7	100

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillarda Navoiy viloyatida ekin maydonlari tarkibida don ekinlari yetakchi o'rinni egallab, 2024-yilda ularning ulushi 47,9 %ni tashkil etgan. Texnik ekinlar, xususan, paxta maydonlarining ulushi 2021-yildagi 36,9 %dan 2024-yilda 31,1 %ga qisqargani agrar siyosatda bosqichma-bosqich diversifikatsiya jarayoni kechayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, sabzavot va kartoshka ekinlari maydonlarining oshishi (mos ravishda 7,98 % va 3,99 %) bozor talabiga yo'naltirilgan, yuqori daromadli ekinlarga o'tish tendensiyasini ko'rsatadi. Ozuqa ekinlari ulushining 6,5 %gacha kengayishi esa chorvachilikning yetakchi mavqeini resurs jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, ekin maydonlari tarkibidagi ushbu o'zgarishlar Navoiy viloyatida paxta–don ixtisoslashuvi saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, meva-sabzavotchilik va yem-xashak yo'nalishlari hisobiga agrar strukturaning yanada muvozanatlashib borayotganini ko'rsatadi.

Agrar strukturaning iqtisodiy samaradorligini baholashda yalpi hosil va hosildorlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu indikatorlar yer resurslaridan foydalanish darajasi, agrotexnik tadbirlarning samaradorligi hamda hudud qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiy viloyatida asosiy ekinlar bo'yicha hosildorlikni respublika o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslab tahlil qilish dolzarb hisoblanadi (3-jadval) [9].

3-jadval. Navoiy viloyatida asosiy ekinlar bo'yicha yalpi hosil va hosildorlik³

Ekin turi	Yalpi hosil (2024), ming t	Hosildorlik (s/ga)	Respublika o'rtacha, s/ga	Farqi (+/-)
Bug'doy	224,2	58,8	53,7	+5,1
Sabzavotlar	354,0	240,8	204,3	+36,5
Kartoshka	92,9	224,5	194,2	+30,3
Uzum	90,6	159,1	158,8	+0,3

3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda Navoiy viloyatida asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari bo'yicha hosildorlik darajasi respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan. Xususan, bug'doy hosildorligi 58,8 s/ga ni tashkil etib, respublika o'rtacha darajasidan 5,1 s/ga ga yuqori ekanligi donchilikda intensiv agrotexnologiyalarning samarali qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Sabzavot va kartoshka ekinlarida hosildorlik farqining mos ravishda +36,5 va +30,3 s/ga bo'lishi ushbu yo'nalishlarning yuqori iqtisodiy rentabelligi va hududning bozor talablari bilan moslashganligini tasdiqlaydi. Uzumchilikda hosildorlikning respublika o'rtacha darajasiga yaqinligi (farq +0,3 s/ga) mazkur tarmoqda barqaror, biroq sezilarli ustunliksiz rivojlanish mavjudligini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval natijalari Navoiy viloyatida dehqonchilik tarmoqlarining samaradorligi yuqori ekanini va agrar strukturaning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib borayotganini asoslaydi.

Navoiy viloyati agrar strukturasida chorvachilik tarmog'i muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining asosiy qismini shakllantiradi. Chorva mollari bosh soni hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari ushbu tarmoqning rivojlanish darajasi va

2 Manba: "O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2021-2025" - statistik to'plam, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nashri, Toshkent 2025 [7]

3 Manba: "O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2021-2025" - statistik to'plam, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nashri, Toshkent 2025 [7]

barqarorligini baholashda asosiy indikatorlar hisoblanadi. Shu bois, chorvachilik rivojini dinamik tahlil qilish hudud agrar strukturasi iqtisodiy tavsifini to'liq ochib berishga xizmat qiladi (4-jadval).

4-jadval. Navoiy viloyatida chorvachilik rivoji ko'rsatkichlari⁴

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024
Qoramol soni, ming bosh	528,4	541,6	545,9	555,0
Qo'y-echki, ming bosh	2321,3	2378,8	2427,4	2496,1
Sut ishlab chiqarish, ming t	497,9	521,0	539,3	567,0
Go'sht ishlab chiqarish, ming t	173,2	181,6	188,3	196,6

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillarda Navoiy viloyatida chorvachilik tarmog'i barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Qoramol sonining 528,4 ming boshdan 555,0 ming boshga oshishi, shuningdek, qo'y-echki bosh sonining 7,5 %ga ko'payishi tarmoqning resurs bazasi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sut ishlab chiqarish hajmining 497,9 ming tonnadan 567,0 ming tonnagacha o'sishi chorvachilikda intensiv rivojlanish omillari kuchayganini anglatadi. Go'sht ishlab chiqarish hajmining izchil ortib borishi esa aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda chorvachilikning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Umuman olganda, chorvachilik ko'rsatkichlarining dinamikasi Navoiy viloyati agrar strukturasi ushbu tarmoqning yetakchi va barqaror rivojlanayotgan segment ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari Navoiy viloyati agrar strukturasi chorvachilik tarmog'ining yetakchi va barqaror rivojlanayotgan yo'nalish ekanini ko'rsatdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining izchil o'sishi hudud agrar salohiyatining mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ekin maydonlari tarkibida don va texnik ekinlar ustunligi saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, sabzavot va kartoshka ekinlari ulushining ortishi agrar sektorda diversifikatsiya jarayonlari kuchayganini tasdiqlaydi. Asosiy ekinlar bo'yicha hosildorlikning respublika o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lishi yer resurslaridan samarali foydalanilayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining barqaror o'sishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ushbu tarmoqning strategik ahamiyatini oshiradi.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, Navoiy viloyatida chorvachilikni qo'llab-quvvatlash bilan birga, dehqonchilik tarmoqlarida yuqori daromadli va bozorga yo'naltirilgan ekinlar ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ekinlar tarkibini optimallashtirish, suv va yer resurslaridan tejamkor foydalanish hamda agrotexnologiyalarni keng joriy etish agrar sektor samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, qayta ishlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish hudud agrar strukturasi barqaror va muvozanatli rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Divanbeigi R., Paustian N., Loayza N. Structural Transformation of the Agricultural Sector: A Primer // Research & Policy Briefs. — Malaysia: World Bank Group, 2016. — No. 2. — P. 1–4.
2. Pogorzelski K. Agricultural Development and Structural Change // IBS Policy Paper. — Warsaw: Instytut Badań Strukturalnych, 2014. — No. 5. — P. 1–20.
3. Хитаунов И.Ж. Agriculture in Central Asia: Current State and Development Perspectives // Вестник университета «Туран». — Алматы, 2020. — № 3 (87). — С. 59–68.
4. Винокуров Е.Ю., Глазунова А.В. Узбекистан и ЕАЭС: перспективы и потенциальные эффекты экономической интеграции // Доклады Евразийского банка развития. — Москва, 2021. — № 21/2. — С. 63–64.
5. Солиев С.А., Эшчанов Р. Состояние и тенденции развития аграрного сектора Узбекистана // Экономика и инновационные технологии. — Ташкент, 2024. — № 2. — С. 1–4.
6. Jumaev Q.X. Analysis and ways to increase the efficiency of the use of agricultural lands in Navoi region (on the example of Karmana district) // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. — 2022. — Vol. 3, Issue 9. — P. 539–542.
7. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2021-2025" - statistik to'plam, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nashri, Toshkent 2025
8. Xamrakulov S.Q. Qishloq xo'jaligida risk turlari va kelib chiqish omillari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — Toshkent, 2025. - № 11-son, 1477-1482-bet
9. Xamrakulov S.Q. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sohalarida mahsulot yetishtirishning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili // Hududlarda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish. — Respublika ilmiy-amaliy anjumani. — Buxoro shahri 2025-yil 14-noyabr, 326-333-bet

4 Manba: "O'zbekiston qishloq xo'jaligi, 2021-2025" - statistik to'plam, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi nashri, Toshkent 2025 [7]



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100